ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№3(2)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish ..... 18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi

Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiolingvistik yondashuv (gandbolchilar misolida)..... 23
G. A. Valiyeva

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari ..... 27
Suyunova Surayyo Ulash qizi

Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish ..... 31
Israilova Xusnida Adilovna

Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish ..... 37
Raximova Feruza Najmiddinovna

Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ..... 42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna

Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari ..... 46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna

Velosiped haydashning afzalliklari..... 49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi

Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане ..... 54
Мирзакбарова Севда Вахиддиновна

Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari..... 58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna

Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ..... 62
Рахмонова Бахтигул Пайзиллоевна

Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi ..... 65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi

Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari..... 71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi

Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .. 76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich

Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili ..... 83
Ismoilova N. Z.

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni..... 87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich

Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati ..... 91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi

Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi..... 95
Jurayeva Zulayxo Islomovna

Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida)..... 102
Islamova Dilfuza Dilshodovna

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni ........ 107
Begmatova Nasiba Mengnarovna

Bo‘lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta’limda subyektlar faoliyatini o‘rgatish metodikasi ........ 112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o‘g‘li

Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading “The Adventures of Tom Sawyer” in 10–11 Grades ........ 118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna

Nutq aktlarini o‘rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo‘nalish talabalari misolida) ........ 122
Fayzulloeva Chevar G‘ayrat qizi

Yangi O‘zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g‘oyalarning o‘rni va roli ........ 125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich

Gimnastikaning O‘zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi ........ 128
N. Q. Mamasidova

Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan refleksiv yondashuv (7-9-sinflar misolida) ........ 131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanalievna

Screencasting materiallarini yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash ........ 134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o‘g‘li

Maktabgacha yoshdagi bolalarda so‘z shakllanishini psixolingvistik asoslari ........ 137
Moxirabonu G‘aniyeva Adxam qizi

Maktabgacha ta’limdagi muammolar va yechimlar: o‘zbekiston respublikasi tajribasi ........ 140
N. Sh. Miryusupova

Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari ........ 143
Olimova Aziza Abdullayevna

Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari ........ 147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi

Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta’siri hamda mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash usullari ........ 150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich

Talabalarni stulda o‘tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o‘rgatish metodikasi ........ 154
Sadatov Chori Xolmuradovich

Organik kimyo fanini o‘qitishda teskari ta’lim va texnologiyalarning ahamiyati ........ 158
Umrbekova Maftuna Ulug‘bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulxakimova Gulziyba Ziynatdinovna

Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo‘llashning samaradorligi ........ 162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish ........ 165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi

Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта ........ 168
Пак Диана Александровна

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli ........ 170
Atenov Jandarbek Dayrabay o‘g‘li

Innovatsion ta’lim muhitida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ........ 173
Bo‘ltakov Sanjarbek Xazratqul o‘g‘li

Alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim tizimining ahamiyati ........ 176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Duduqlanish nutq kamchiligini korreksiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish ........ 180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna

Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования. 184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович

Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari........ 188
Azimova Nodira Hikmatovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari........ 191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi

Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati........ 194
Burkhanova Sabo Tulanovna

Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari ........ 197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna

Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari........ 200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov

Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish........ 204
Daliyeva Eliza Zokir qizi

Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish ........ 207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi

Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari........ 210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi

ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish ........ 216
Tursunova Shahzoda Baxromovna

Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье ........ 219
Гулру Тургунова

O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni ........ 229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna

Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды........ 234
Умматалиева Шерзода Шерали угли

Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish........ 239
Baratov Nasriddin Karshibayevich

O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlari........ 243
Fayziyeva Nodira Sobirovna

Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari ........ 247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova

Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida) ........ 252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich

O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati........ 257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich

Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari ........ 261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli

Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo‘llanishi ....265
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G‘ulomovich

Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo‘llanishi ....270
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o‘gli

Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o‘smirlik misolida) ....275
Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o‘g‘li

O‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari ....278
Suvanova Baxtigul Baxridinovna

Xalqaro tajriba asosida o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish mexanizmlari....283
Azimov I. T., Mirzayeva N. I.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitishda didaktik vositalardan foydalanish ....288
Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna

Yuqori malakali o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi ....292
Nazarov Nuriddin Baxranovich

Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli ....297
Jabborova Yulduzxon Hasan qizi

Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari....301
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna

Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o‘rni....304
Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna

Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства....307
Ф. Равшанов, Л. Сохибова

Bo‘lajak tarbiyachilarda o‘quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....311
Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi

Texnologik ta’limda xorijiy tajriba ....316
Lochinbek Abdirasulov

Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari....319
Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: “ona tili” darsligi, mashq daftari, o‘qituvchi kitobi ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida....324
Soatova Hilola Shuhrat qizi

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida....328
R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov

Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ....332
Чернова Татьяна Алексеевна

O‘smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta’siri ....335
Toshpo‘latova O‘giloy Baxtiyor qizi

Bo‘lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste’mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari ....339
D. G. Umnov

Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari....344
Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna

Oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari ....347
Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi ....351
Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi

Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi ....354
Ikrom Qodirov

Hadassah gospital maktabi modelining oʻziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni Oʻzbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati ........ 357
**Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim oʻgʻli, Alimova Dono Abbosxanovna**

Davlat boshqaruvi tizmida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi ........ 361
**Amirxoʻjayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon oʻgʻli**

Neyropedagogik yondashuv asosida oʻquvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari ........ 364
**Babakulova Dilnoza Ramazonovna**

Boshlangʻich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va oʻquvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi ........ 367
**Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna**

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari ........ 370
**Gʻaniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna**

Ingliz tili darslarida kitobxonlik koʻnikmalarining oʻziga xosligi ........ 373
**Joʻraboyeva Turgʻunoy Ikromjon qizi**

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi ........ 377
**Kozimova Sadoqat**

Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni oʻqitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari ........ 380
**Majitov Turgʻunali Anvar oʻgʻli**

Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar ........ 383
**Nishanova Zulfizar Yashin qizi**

Boʻlajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining oʻrni ........ 386
**Nurulloyev Firuz Noʻmonjonovich**

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida) ........ 390
**Sabirov Kaxramon Bektursun oʻgʻli**

Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish ........ 393
**Tillayeva Vasila Oʻktam qizi**

Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni ........ 398
**Tursunaliyev Shaxzod Sherali oʻgʻli**

Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish ........ 402
**Xomudjonova Feruza Komiljon qizi**

Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini oʻqitish orqali talabalarning ogʻzaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish ........ 406
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna**

Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов ........ 409
**Гуламов Жасур Баходирович**

Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии ........ 413
**Ягудин Дмитрий Рустамович**

# RAQAMLI MUHITDA SHAXS XULQ-ATVORI DINAMIKASI (BOLALIK VA O'SMIRLIK MISOLIDA)

Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti 1-kurs doktoranti
https://orcid.org/0009-0009-0896-393X

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada shaxsning bolalik davridan o'smirlik bosqichigacha bo'lgan davrda raqamli muhitga ijtimoiylashuvi hamda xulq-atvor dinamikasi bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Tadqiqot D.B. Elkoninning yetakchi faoliyat nazariyasi va yosh davrlari periodizatsiyasiga asoslanadi. Shunga muvofiq, shaxs rivojlanishining quyidagi bosqichlari ajratib ko'rsatilgan: "raqamgacha bo'lgan bosqich" (0–1 yosh), "raqamli sho'ng'ish" (7–11 yosh), "raqamli arxitektura" (11–15 yosh), "raqamli moslashuv" (15–17 yosh) va "raqamli o'zini anglash" bosqichi. Shuningdek, raqamli resurslarning kognitiv jarayonlarga, xususan ishchi xotira va diqqatga ta'siridagi ambivalentlik ilmiy asosda yoritilgan. Bundan tashqari, raqamli xulq-atvor va madaniyatni shakllantirishda ota-ona nazorati hamda oilaviy ustanovkalarning muhim roli asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli muhit, xulq-atvor dinamikasi, raqamli ijtimoiylashuv, bolalik va o'smirlik, raqamli moslashuv, ota-ona nazorati, raqamli shaxs, kognitiv jarayonlar.

**Abstract:** This article provides a systematic analysis of an individual's socialization in the digital environment and the dynamics of behavior from childhood to adolescence. The study is grounded in the theory of leading activities and developmental periodization proposed by D.B. Elkonin. Accordingly, the following stages of personality development are identified: the "pre-digital stage" (0–1 year), "digital immersion" (7–11 years), "digital architecture" (11–15 years), "digital adaptation" (15–17 years), and "digital self-awareness." Furthermore, the ambivalent impact of digital resources on cognitive processes, particularly working memory and attention, is substantiated. The study also highlights the significant role of parental control and family attitudes in shaping digital behavior and culture.

**Key words:** digital environment, behavioral dynamics, digital socialization, childhood and adolescence, digital adaptation, parental control, digital personality, cognitive processes.

**Аннотация:** В данной статье поэтапно анализируются процессы социализации личности в цифровой среде и динамика её поведения от детства до подросткового возраста. Исследование основано на теории ведущей деятельности и периодизации развития, разработанной D.B. Elkonin. В соответствии с этим выделены следующие этапы формирования личности: "доцифровой этап" (0–1 год), "цифровое погружение" (7–11 лет), "цифровая архитектура" (11–15 лет), "цифровая адаптация" (15–17 лет) и "цифровое самосознание". Обоснована амбивалентность влияния цифровых ресурсов на когнитивные процессы, включая рабочую память и внимание. Кроме того, раскрыта значимая роль родительского контроля и семейных установок в формировании цифрового поведения и культуры.

**Ключевые слова:** цифровая среда, динамика поведения, цифровая социализация, детство и подростковый возраст, цифровая адаптация, родительский контроль, цифровая личность, когнитивные процессы.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatning chuqur raqamlashtirilishi shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga, xususan, uning xulq-atvori va ijtimoiylashuv jarayonlariga misli ko'rilmagan darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shunchaki aloqa vositasi emas, balki shaxsning dunyoqarashi shakllanadigan va uning ijtimoiy normalari o'zlashtiriladigan asosiy yashash makoniga aylandi. Ayniqsa, bolalik va o'smirlik davrida raqamli muhitga intensiv kirib borish shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor dinamikasini belgilab beruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda bolalikdan to o'smirlikgacha bo'lgan davrda raqamli ijtimoiylashuvning izchil bosqichlari va xulq-atvor o'zgarishlarining uzviyligi to'liq ochib berilmagan. Aksariyat izlanishlar yo faqat o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotiga, yo kichik yoshdagi bolalarning gadjetlarga tobeligiga alohida qaratilgan. Shaxsning raqamli muhitga moslashuvida oilaviy usta-

novkalar va ota-ona nazoratining xulq-atvor modellariga ta'siri ijtimoiy-psixologik yaxlit tizim sifatida o'rganishni talab etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi - bolalik va o'smirlik davrida shaxsning raqamli muhitdagi xulq-atvori dinamikasini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish hamda raqamli moslashuv bosqichlarini tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqsad raqamli muhitning psixikaga ambivalent ta'sirini tushunish va muqobil xulq-atvor strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotimiz muhim konsepsiyalardan biri V.D. Nechayev va Ye.Ye. Durneva asarlarida keltirilgan raqamli shaxsning shakllanish konsepsiyasidir [3, 37-44-b]. Tadqiqotchilar D.B. Elkonin modeli bo'yicha yetakchi faoliyatning rivojlanish bosqichlarini shaxsning raqamli muhitga kirib borishi bilan taqqoslaydilar. Mualliflarning yozishicha, yagona raqamli bo'lmagan yosh – bu 0 dan 1 yoshgacha bo'lgan davrdir. Biroq, bizning fikrimizcha, bir qator jihatlarga ko'ra, bu tezis yetarlicha bahsli hisoblanadi: 1 yoshgacha bo'lgan bolaning faoliyati ham raqamli muhit va makon imkoniyatlari (chalg'itish/tinchlantirish texnikasi, ovqat tayyorlash anjomlari, ertak va musiqani ifoda etadigan o'yinchoqlar) bilan uzviy bog'liqdir. Shunga ko'ra, bunday holatda bola raqamli resurslardan ongsiz foydalanishini namoyish qilishi mumkin va uning raqamli faolligi darajasini kuzatib borish ancha murakkab. Shaxsning raqamli muhitga kirib borishining bu bosqichini biz raqamgacha bo'lgan bosqich deb atashni taklif qilamiz.

V.D. Nechayev va Ye.Ye. Durnevaga ko'ra, keyingi bosqich erta bolalikni (1 yoshdan 3 yoshgacha) qamrab oladi, bunda bola raqamli muhit bilan ko'proq ongli ravishda tanishadi [168]. Bolaning yetakchi predmetli-manipulyativ faoliyati raqamli muhit doirasidagi manipulyativ faoliyatga mos keladi. Raqamli manipulyativ faoliyat texnika bilan bevosita predmetli o'zaro munosabat sifatida ham, virtual o'yinlar (A.N. Veraksa) [1, 5-12-b] doirasidagi manipulyatsiya sifatida ham taqdim etilishi mumkin. Qiziqarlisi shundaki, raqamli muhitga kirib borish ushbu yosh davrida, ehtimol, hali yoki raqamgacha bo'lgan bosqichda yoxud oraliq bosqichda bo'ladi, ammo raqamli faollikni allaqachon biroz ongli deyish mumkin. Ta'kidlaymizki, to'liq anglangan raqamli faollik uchun bu faollikni ishga tushiradigan va xulq-atvorda ifodalanadigan tasavvurlar va ichki undovchi motivatsiya yetishmaydi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, navbatdagi bosqich 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bunda yetakchi o'yin faoliyati raqamli muhit bilan maksimal darajada mantiqan mos tushadi [3, 37-44-b]. Ma'lumki, raqamli muhit ko'ngilochar-rekreatsion makonning katta xilma-xilligini taklif etadi. Bu yerda tadqiqotchilar bolaning raqamli muhit bilan faol o'zaro aloqasi ham ijobiy natijalarga, ham ma'lum bir buzilishlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bunday salbiy oqibatlarga (buzilishlarga) ijtimoiy muloqot ko'nikmalarining buzilishi, nutq apparatidagi nuqsonlar, so'z boyligining qashshoqlashuvi, tasavvur va xayolotning (fantaziyaning) cheklanishini misol qilib keltirish mumkin. Gipoteza tuzish doirasida shuni oydinlashtirish o'rinliki, shaxsning raqamli muhitga kirib borishidagi ushbu va oldingi bosqichlari foydalanuvchining ko'nikmalari bo'yicha turlicha ko'rsatkichlarga ega, biroq individual-psixologik xususiyatlari jihatidan deyarli farq qilmaydi. Bir tomondan, kognitiv-affektiv jarayonlarning dinamikasi kuzatilsa, ikkinchi tomondan, raqamli muhitdan foydalanishning barqaror ichki motivlari va unga bo'lgan munosabat hali rivojlanmagan bo'ladi (A.N. Veraksa) [1, 5-12-b]. Bu yerda bolaning raqamli faolligi darajasini kuzatish mumkin, biroq u haqdagi tasavvurlar to'liq bo'lmaydi.

Tadqiqotchi T. Kompernolle maktabgacha yoshdagi bolaning raqamli xilma-xillik orasida bo'lishi sensor (hissiy) ma'lumotlarga qaramlikni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi [2, 368-b, 4, 522-b]. Ushbu qaramlikni yorqin va rang-barang virtual stimul taqdim etilganida yuzaga keladigan dofamin ajralishi quvvatlab turadi. Bu xulosalar raqamli muhit ta'siri ostida psixofiziologik o'zgarishlarni o'rganish kontekstida juda muhim, biroq bir qator nozik jihatlarni oydinlashtirish zarur. Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolaning tovushga, rangga va rasmlar harakatiga bo'lgan yuqori ehtiyoji uning yosh xususiyatlari bilan to'la oqlanadi – bu quvvatlashlar (podkrepleniya) asosida bolada diqqat va bilish faolligi shakllanadi. Ikkinchidan, bolalar uchun virtual o'yinlar odatda ma'lum bir yosh va rivojlanish darajasiga mo'ljallangan (Google Play va App Store'da: "Ranglar va shakllar", "Bolalar pazllari", "Bolalar uchun bo'yash", "Dars: musiqa va rasm" va boshq.). Ko'pincha bu o'yinlar ham qiziqtiruvchi, ham rivojlantiruvchi xarakterga ega. Uchinchidan, keltirilgan tadqiqot raqamlidan ko'ra ko'proq virtual muhitga tegishli, biroq, shubhasiz, o'xshash mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Bu o'rinda A.N. Veraksaning tadqiqotlarini qayd etish muhim [1, 5-12-b]. Raqamli qurilmalardan foydalanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalarning regulyator funksiyalarini o'rganar ekan, tadqiqotchi bola iste'mol qilayotgan kontent xususiyatini hisobga olishning ahamiyatini uqtiradi. Masalan, ta'lim va bilishga doir kontentni ko'rgandan so'ng maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv funksiyalari, xususan, ishchi xotirasi va tutib turuvchi nazorati (tormozlanish) yaxshilangan. Shu bilan birga, ko'ngilochar kontentni tomosha qilish bola psixikasiga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatganligini alohida ta'kidlash zarur. Bundan tashqari, A.N. Veraksa empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilar ekan, raqamli faoliyat vaqtini cheklash maqsadida ota-ona nazorati (parental control) o'rnatilganda, bolalar ko'proq rivojlangan ko'ruv-ishchi xotirasini namoyish etishganini kuzatgan. Raqamli kontent miqdorini cheklash uchun ota-ona nazorati joriy etilganida esa, qoida tariqasida bolalarda eshituv-nutq ishchi xotirasi ko'rsatkichlarining pasayishi kuzatilgan [1, 5-12-b]. Ushbu xulosalar raqamli muhit-

ning ambivalentligi haqidagi farazni tasdiqlaydi. Ta'kidlaymizki, foydalanuvchi xulq-atvorini o'rganish doirasida ota-onalarning raqamli muhitga bo'lgan munosabatlari (ustanovkalari) o'ziga xosliklarini oydinlashtirish muhim amaliyot hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik maktab yoshidayoq (7 yoshdan 11 yoshgacha) shaxs va raqamli muhit o'rtasidagi aloqalar asta-sekin o'zgaradi [168]. Bu, avvalo, zamonaviy inson hayotining raqamlashtirilishi bilan bog'liq. Agar avvallari o'quvchining raqamli faoliyati faqat muloqot, o'yin va raqamli ta'lim bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning ko'lami sezilarli darajada kengaydi – ijodiy va bilishga doir faoliyat turlari, shuningdek, umuman texnika bilan muloqot ham qo'shildi. Biz raqamli muhitga kirishda yanada faolroq raqamli sho'ng'ish (immersiya) yuz beradigan bosqich borligini faraz qilishimiz mumkin.

Raqamli sho'ng'ish (immersiya) bosqichi va uning kechishi xususiyatlari, katta ehtimol bilan, quyidagi omillarga bog'liq: bolaning o'z qiziqishlari va ehtiyojlari; raqamli davr keltirib chiqargan zarurat; oila va atrof-muhitning raqamli muhitga munosabati va qarashlari. Ko'rsatilgan omillarga qarab raqamli faollik darajasi shakllanishi va foydalanuvchining raqamli xulq-atvori spetsifikasida namoyon bo'lishi mumkin.

V.D. Nechayev va Ye.Ye. Durnevaning yozishicha, o'smirlik davrida (11 yoshdan 15 yoshgacha) yetakchi faoliyat – muloqot bilan bog'liq bo'lib, u raqamli platformalarda amalga oshirilishi mumkin (bunga ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, chatlar va hokazolarning xilma-xilligi yordam beradi) [3, 37-44-b]. Qo'shimcha qilamizki, o'smirlar muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini chat-botlar, sun'iy intellekt tizimlari va virtual reallik texnologiyalari orqali ham qondirishlari mumkin.

Mualliflar shuni ta'kidlaydilarki, me'yordan ortiq virtual muloqot o'smir yoshdagi foydalanuvchilarning ijtimoiy va hissiy (emotsional) intellekti past bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin, bu o'z navbatida shaxslararo kommunikatsiyaning buzilishiga va o'z-o'zini taqdim etishdagi (samoprezentatsiya) qiyinchiliklarga olib keladi [3, 37-44-b]. Mazkur tadqiqotlarning ahamiyatini tan olgan holda, ayrim nuanslarni ta'kidlab o'tamiz: birinchidan, raqamli muhitda ijtimoiy va hissiy intellektni rivojlantirish uchun asbob-uskunalarning katta xilma-xilligi mavjud, jumladan ixtisoslashgan platformalar, memlar, rils (reels) va boshqalar. Ikkinchidan, postnoklassik raqamli muhitda o'z-o'zini taqdim etish (samoprezentatsiya) o'ta ko'p qirrali va keng tarqalgan hodisadir.

Ushbu muhit o'z-o'zini taqdim etishning umumqabul qilingan qoidalarini yuvib yuboradi (chegaralarni ochadi) va shaxsga o'zini o'zi uchun muhim bo'lgan har qanday usulda namoyish qilishiga ruxsat beradi. Taxmin qilamizki, bu yoshda raqamli sho'ng'ish va raqamli moslashuv o'rtasidagi oraliq bosqichni – raqamli arxitektura bosqichini ajratish mumkin. Katta ehtimol bilan, uning o'ziga xosligi raqamli muhitda sarflangan vaqt miqdorining ortishi va instrumental ko'nikmalarning rivojlanishi bilan tavsiflanishi mumkin.

V.D. Nechayev va Ye.Ye. Durneva ta'kidlashicha, katta maktab yoshi (15 yoshdan 17 yoshgacha) o'quv-kasbiy faoliyatga intilishni taqozo etadi va u raqamli muhitga muvaffaqiyatli moslasha oladi [3, 37-44-b]. Bu holda raqamli muhit yo'lboshlovchi bo'lib xizmat qilishi va katta yoshdagi o'quvchilarga o'zlarini turli xil rollarda sinab ko'rishga imkon berishi mumkin. Faraz qilamizki, aynan shu bosqichda shaxsning yakuniy raqamli moslashuvi (adaptatsiyasi) hamda raqamli faollik darajasidan kelib chiqib, raqamli muhitdan ongli ravishda foydalanish jarayoni ro'y beradi. Katta ehtimol bilan bu bosqichdagi raqamli faollik darajasi shaxs individual-psixologik xususiyatlarining natijasi ham bo'lishi mumkin, yoki foydalanuvchining raqamli muhit doirasidagi o'zaro ta'sirining samarasi (yakuni) ham bo'lishi mumkin. Ana shunda bu bosqichni shaxsning raqamli moslashuvi bosqichi deb atash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida aytib o'tdikki, raqamli muhitda o'zini namoyon qilish, o'zini taqdim etish va o'z shaxsini rivojlantirishning turli usullari mavjud. Shuni aniqlashtiramizki, agar shaxs ma'lum munosabatlarni (ustanovkalarni), motivlar va kognitiv xususiyatlarni namoyish etsa, uning raqamli muhitda yanada rivojlanishi mumkin bo'ladi. U holda, katta ehtimol bilan, shaxsning raqamli muhitga kirib borishining yana bir necha bosqichlari mavjud bo'lishi ehtimoldan xoli emas – raqamli moslashuv va raqamli o'zini o'zi namoyon qilish (samorealizatsiya) o'rtasidagi oraliq bosqich – gibrid raqamli bosqich – va bevosita raqamli o'zini o'zi anglash bosqichi. Taxmin qila olamizki, raqamli samorealizatsiya bosqichi foydalanuvchi psixik tuzilmasidagi yangi hosilalarni (novoobrazovaniya) o'z ichiga olishi mumkin va bu uning o'ziga xos raqamli shaxs sifatida shakllanganligidan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Веракса, А. Н. Связь использования цифровых устройств и регулятор ных функций у дошкольников: родительское участие. – 2025. – № 2. – С. 5-12.
2. Компернолле, Т. Подросток и гаджеты. – Москва : Альпина Дети, 2024. – 368 с.
3. Нечаев, В. Д. "Цифровое поколение": психолого-педагогическое ис следование проблемы. Педагогика. – 2016. – № 1. – С. 37–44.
4. Compernolle, T. BrainChains: discover your brain, to unleash its full po tential in a hyperconnected, multitasking world / T. Compernolle. – Belgium : Com publications, 2014. – 522 p.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №3(2)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.